



O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI REKTORINING BUYRUG‘I

2023-yil 11-yanvar

13-I/Ch-son

“Aholini ommaviy sog‘lomlashtirishning innovatsion sport klasterini tashkil etish” nomli ilmiy loyihani bajarish ishlarini tashkil qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 3 noyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-414-son qarori 5-ilovasi “O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tomonidan yangi ishlanma va texnologiyalarni yaratish va joriy etish loyihalarini amalga oshirish dasturi”ga kiritilgan loyihalar ijrosini ta’minlash maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 3 noyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-414-son qarori 5-ilovasi “O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tomonidan yangi ishlanma va texnologiyalarni yaratish va joriy etish loyihalarini amalga oshirish dasturi” ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorning 5-ilovasi “O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tomonidan yangi ishlanma va texnologiyalarni yaratish va joriy etish loyihalarini amalga oshirish dasturi”ga kiritilgan “Aholini ommaviy sog‘lomlashtirishning innovatsion sport klasterini tashkil etish” nomli ilmiy loyihani bajaruvchi ishchi guruh tarkibi 1-ilovaga muvofiq hamda ilmiy loyihani amalga oshirish bo‘yicha nazorat rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. “Aholini ommaviy sog‘lomlashtirishning innovatsion sport klasterini tashkil etish” nomli ilmiy loyihani bajaruvchi ishchi guruhga:

aholini ommaviy sog‘lomlashtirishning innovatsion sport klasterini tashkil etish bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganish;

loyiha mavzusi doirasidagi ilmiy adabiyotlarni o‘rganish hamda maqolalar chop etish;

yosh izlanuvchilarning tadqiqot ishlariga jalb qilish;

xorijiy va mahalliy yetuk olimlarni loyiha bo'yicha tashkil etiladigan ilmiy seminarlarga taklif qilish;

loyiha natijalari asosida ilmiy maqolalar tayyorlash hamda xalqaro ilmiy-texnik bazalarga kirgan jurnallarda nashr etish choralarini ko'rish;

loyiha doirasida erishilgan yangiliklar, ilmiy yutuqlar uchun patentlar, mualliflik guvohnomalarini olish hamda tijoratlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish vazifalari yuklatilsin.

4. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor (B.B.Musayev), Ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i (A.N.Shopulatov)larga "Aholini ommaviy sog'lomlashtirishning innovatsion sport klasterini tashkil etish" nomli ilmiy loyihani bajaruvchi ishchi guruhga tashkiliy-metodik yordam ko'rsatib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor (I.Ibragimov), Reja-moliya bo'limi boshlig'i (A.Tog'ayev), Bosh hisobchi (M.Maxamov)lar loyihani moliyalashtirish bo'yicha sarf-xarajatlarni smetaga kiritish hamda loyiha rahbari talabnomasi asosida moliyalashtirish va loyihani bajaruvchi ishchi guruh a'zolarini rag'batlantirish choralarini ko'rsin.

6. Universitet devonxonasi mudirasi (K.Kurbanova) va fakultet dekanlari, kafedra mudirlariga mazkur buyruqning mazmunini universitet jamoasiga yetkazish vazifasi topshirilsin.

7. Ushbu buyruq ijrosining nazorati Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor (B.B.Musayev) zimmasiga yuklatilsin.

ASOS: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 3 noyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-414-son qarori.

Rektor v.v.b.



N.E.Dusanov